

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-soni)**



**FILOLOGIYA
PHILOLOGY**

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING SOTSIOLINGVISTIK
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI**

Ermirzayev Abbos Vaxobjonovich
Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti
Email: ermirezayev89@mail.ru

Annotatsiya: Zamonaviy ta’lim muassalari tomonidan talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini takomillashtirishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalinish talab etilmoqda. Ushbu maqolada talabalarning axborot-texnologik kompetentligini rivojlantirish uning asosiy kasbiy bilimlari, ko‘nikma va malakalariga qo‘sishchalar shakllantirilish zarurati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: sotsiolingvistik, kompetensiya, autentik, axborot, texnologiya

**ЗНАЧЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В
СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

Аннотация: Современные образовательные учреждения требуют эффективного использования информационных технологий для совершенствования социолингвистической компетенции студентов. В данной статье рассматривается необходимость формирования информационно-технологической компетентности студентов в дополнение к их основным профессиональным знаниям, навыкам и умениям.

Ключевые слова: социолингвистический, компетенция, аутентичный, информация, технология.

**THE IMPORTANCE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN IMPROVING
THE SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH TEACHERS**

Abstract: Modern educational institutions require the effective use of information technologies to enhance students' sociolinguistic competence. This article discusses the necessity of developing students' information and technological competence in addition to their core professional knowledge, skills, and abilities.

Keywords: sociolinguistic, competence, authentic, information, technology.

Kirish

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilariga yaratilayotgan shart-sharoitlar ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va xalqaro standartlarga mos ta’lim olishlarini ta’minlashga qaratilgan. Bu borada quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda: ta’lim dasturlarini isloq qilish: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, 17 ta o‘qituvchilarni tayyorlash institutlari va Norvich til ta’limi instituti bilan hamkorlikda yangi o‘quv rejasini (PRESETT) ishlab chiqildi. Ushbu dastur bo‘lajak o‘qituvchilarining zamonaviy talablariga mos bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan [1]. Pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish: Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-gnostik va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa ularning talabalarga tilni samarali o‘rgatish qobiliyatini oshiradi. Innovatsion o‘qitish metodlarini joriy etish: Fanlararo ta’lim va integratsiya asosida o‘qitish usullari qo‘llanilmoqda, bu esa talabalarning qiziqishini oshirish va bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi. O‘qituvchilarni tayyorlashda xalqaro hamkorlik: British Council kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘qituvchilarni tayyorlash tizimida islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa ta’lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashishga xizmat qiladi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini zamonaviy ta’lim talablariga mos ravishda axborot texnologiyalari bo‘yicha bilimlarini rivojlantirish va o‘z kasbiy faoliyatlarida yuqori natijalarga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Axborot texnologiyalari davlat miqyosida muhim yo‘nalishga ega bo‘lib, ta’limni axborotlashtirish konsepsiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi bilan yanada maqsadli tus oldi. An’anaviy ravishda axborot-kompyuter texnologiyalari texnik fanlarni o‘rganishda qo‘llanilgan bo‘lsa, bugungi kunda axborot jamiyatining rivojlanishi yangi avlod gumanitar mutaxassislarini ya’ni bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash zarurligini ko‘rsatmoqda. Bu mutaxassislar o‘qish jarayonida ham, kelajakdagi professional faoliyatida ham axborot-kompyuter texnologiyalaridan foydalana olishlari, o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish uchun ularni qo‘llay olishlari kerak. Shu bois, axborot-kompyuter texnologiyalarining maktab va oliy o‘quv yurtlaridagi o‘quv jarayoniga ta’siri sezilarli darajada oshdi. Avvallari ular faqat vizual va illyustrativ vosita sifatida foydalanilgan bo‘lsa, hozirda ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida ajralmas qismga aylandi. Bu texnologiyalarning o‘quv materiallarini tushunish, qabul qilish va eslab qolish jarayonlariga ta’siri juda kengdir [2].

B.Yu. Dereshkoga ko‘ra, ta’lim jarayonini axborotlashtirish deganda o‘qitish maqsadlariga mo‘ljallangan apparat-dasturiy mahsulotlarni ta’lim jarayoniga joriy qilish va pedagoglarning ularni qo‘llay olish qobiliyatini oshirish tushuniladi. Bu jarayon, bir tomonidan, ta’lim muassasalarini texnik va dasturiy jihatdan ta’minlashni, ikkinchi tomonidan esa, pedagog va talabalarning ma’lum darajadagi kompyuter savodxonligini talab qiladi [3].

Tadqiqot metodologiyasi

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirishda axborot texnologiyalarini ahamiyati muhokama qilindi. Ingliz tilidagi autentik materiallar topishda axborot texnologiyalari afzallikkleri tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari nafaqat turli kompyuter qurilmalarida ta’limiy dasturlarni qo‘llashni bilishlari, balki o‘zlarining ingliz tili fani sohasi xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi o‘quv modullarini ishlab chiqishlari ham lozim. Buning uchun esa o‘qituvchilarning axborot-texnologik kompetentligini shakllantirish talab qilinadi.

Pedagogning axborot-texnologik kompetentligini YUNESKO tavsiyalariga ko‘ra quyidagi tarkibiy qismlar tashkil etadi:

Axborot-kompyuter texnologiyalarini ta’lim jarayonida qo‘llash – pedagog nafaqat elektron ta’lim dasturlaridan foydalana olishi, balki ularni talabalarga qanday taqdim etish va ularga yordam ko‘rsatish usullarini ham bilishi lozim.

Bilimlarni egallah – pedagog talabalarga o‘quv fanlarini o‘zlashtirishda yordam bera olishi kerak. Bilim ishlab chiqarish – pedagog talabalarga jamiyat rivojiga hissa qo‘shuvchi yangi bilimlarni yaratishda yordam berish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim [4].

Demak, pedagogning axborot-texnologik kompetentligini rivojlantirish uning asosiy kasbiy bilimlari, ko‘nikma va malakalariga qo‘srimcha ravishda shakllantirilishi zarur.

Axborot-kompyuter texnologiyalari – bu kompyuter qurilmalari, turli dasturiy ta’mnotlar, multimedia vositalari, internet, mobil aloqa, sun’iy yo‘ldosh texnologiyalarini va elektron pochta kabi vositalarni o‘z ichiga olgan zamonaviy ta’lim resurslari hisoblanadi [5].

Ushbu texnologiyalarni qo‘llash quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- Ta’limiy texnologiyalar – o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasini oshirish uchun;
- Trening texnologiyalar – egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash maqsadida;
- Axborot-qidiruv va ma’lumot texnologiyalar – axborotni tizimlashtirishga yordam berish uchun;
- Demonstratsion texnologiyalar – bilimlarni vizual tarzda tushunarli qilish uchun;
- Simulyatsion texnologiyalar – real obyektlar va jarayonlarni modellashtirish orqali o‘rganish uchun;
- Hisoblash texnologiyalar – avtomatlashtirilgan hisob-kitob amaliyotlari uchun;
- Ta’limiy o‘yin texnologiyalar – interaktiv va qiziqarli o‘quv muhitini yaratish uchun.

Kompyuter ta’lim jarayonida quyidagi ikki asosiy vazifani bajaradi:

Ishchi vosita sifatida – matnlarni tayyorlash, saqlash, grafik tahrirlash, taqdimotlar tayyorlash va murakkab hisob-kitoblar bajarish uchun ishlatiladi.

Pedagog rolida – talabalarga ta’limiy ma’lumot berish, nazorat qilish va diagnostika qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Axborot-kompyuter texnologiyalarini ta’lim jarayonida qo‘llash quyidagi afzalliklarga ega:

- O‘quv materiallarini tez va oson topish imkonini beradi.
- O‘quv jarayonini vizual va eshitish orqali samarali tushunishga yordam beradi.
- Talabalar bilan samarali muloqot o‘rnatishga ko‘maklashadi.
- Talabalar o‘zlariga qulay vaqtida o‘quv materiallarini qayta ko‘rib chiqishlari mumkin.
- O‘quv jarayonini individuallashtirish imkoniyatini yaratadi.
- O‘zlashtirish darajasini mustaqil tekshirish va baholash imkoniyatini beradi.
- Talabalar uchun psixologik qulay muhit yaratadi.
- Talabalarning ijodiy va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.
- Mustaqil ta’lim olish imkoniyatini kengaytiradi.
- O‘quv jarayonini tezlashtiradi va samaradorligini oshiradi.
- Talabalarga vaqtini boshqarish va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.
- Dars jarayonini yanada jonli va qiziqarli qiladi.

Hozirgi globallashgan dunyoda ingliz tilini o‘rganish nafaqat ta’lim tizimining muhim qismi, balki shaxsiy va professional rivojlanish uchun ham zaruriy vosita hisoblanadi. Ingliz tili darslarida samarali metodlardan biri autentik materiallardan foydalanish bo‘lib, bu usul til o‘rganish jarayonini yanada real va interaktiv qiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari esa bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Autentik materiallar – bu ingliz tilida so‘zlashuvchilar tomonidan haqiqiy maqsadlarda yaratilgan matnlar, audio va videolardan iborat bo‘lib, talabalarga real hayotdagি muloqot holatlariga tayyorlanish imkoniyatini beradi. Misol tariqasida, gazetalar, jurnallar, blog postlari, podcastlar, intervylular va kinofilmlar keltirilishi mumkin. Ushbu materiallar yordamida talabalar tabiiy tilda uchraydigan talaffuz, urg‘u va grammatik konstruktsiyalarni o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar. Buning natijasida, talabalarda til sohiblariga xos muloqot madaniyati ya’ni sotsiolingvistik kompetensiyasi takomillashib boradi.

Axborot texnologiyalari autentik materiallardan samarali foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Quyidagi axborot texnologiyalaridan foydalanish xorijiy tillarni o‘qitishda ahmiyatili hisoblanadi:

Multimedia Resurslardan Foydalanish

Internetda mavjud bo‘lgan video va audio materiallar yordamida talabalar tabiiy nutqni tinglab, talaffuz va urg‘uni yaxshilashlari mumkin.

YouTube, TED Talks, BBC Learning English kabi platformalar talabalarga interaktiv ta’lim muhitini yaratadi.

Onlayn Lug‘atlar va Tarjimon Dasturlari

Google Translate, Oxford Dictionaries, Cambridge Dictionary kabi vositalar matnni tushunishda yordam beradi va talabalarning so‘z boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Interaktiv Ilovalar va Platformalar

Duolingo, Memrise, BBC Learning English, Quizlet kabi ilovalar autentik materiallarni o‘rganish jarayoniga tatbiq etib, ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Virtual Haqiqat (VR) va Sun’iy Intellekt (AI) Texnologiyalari

Virtual haqiqat texnologiyalari orqali talabalar o‘zlarini ingliz tilida so‘zlashadigan muhitda his qilib, muloqot ko‘nikmalarini oshirishlari mumkin.

Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan suhbat botlari (chatbots) orqali talabalar real hayotdagi muloqotga yaqinlashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Onlayn Forum va Guruhli Muhokamalar

Facebook, Reddit, Quora kabi platformalar orqali talabalar boshqa til o‘rganuvchilar yoki ona tilida so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilib, yozma va og‘zaki ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.

Ingliz tili darslarida autentik materiallardan foydalanish talabalarga tabiiy til muhitida shug‘ullanish va real hayotiy vaziyatlarga moslashish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari esa ushbu jarayonni osonlashtiradi va yanada samarali qiladi. Shunday qilib, zamonaviy texnologiyalar yordamida autentik materiallardan foydalanish til o‘rganish jarayonini innovatsion va samarali tarzda rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa

Demak, zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot-kompyuter texnologiyalaridan foydalanish shunchaki zamonaviy trend emas, balki ta’lim sifatini oshirish va uni samarali tashkil etish uchun zarur vositadir. Ingliz tili amaliy mashg‘ulotlarida zamonaviy axborot texnologiyalar orqali autentik materiallarni o‘qish til o‘rganish jarayonini intuitiv, interaktiv va qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinin 2021-yil 19-maydag‘i PQ-5117-soni “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

2. Журавлева Т.С. Лингвоперсонологическая типология потребителей рекламных текстов (к постановке проблемы). // Вестник КемГУ, Т. 1, № 2 (54), 2013. – С. 187-190.

3. Дерешко Б.Ю. Классификация информационно-коммуникационных образовательных технологий и их использование в учебном процессе вуза. // Телекоммуникации и информатизация образования, № 6, 2005. – С. 92-103.

4. Захарова К.А. Комплекс методических средств для формирования социолингвистической компетенции бакалавров. // Известия ВГПУ, № 9 (122), 2017. – С. 11-14.

5. Зияева С.А. Совершенствование социолингвистической компетенции студентов языковых высших образовательных учреждений при обучении немецкому языку. Дисс. ... док. пед. наук. – Т.: 2020. – 344 с.